



THE PLACE AND DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL SCIENCES IN THE SCIENCE DEVELOPMENT OF NEW UZBEKISTAN

Esonaliyeva Gulnoza Dilmurod qizi

1st Year Master's Student, Faculty of Social Sciences, National University of Uzbekistan, Specialty "Methodology of Teaching Social and Humanitarian Sciences"

Abstract

This article presents conclusions, proposals and recommendations on the reforms in the development of pedagogical sciences in the science of New Uzbekistan, the tasks of introducing the experience of advanced countries that have achieved great success in this field, and the priority areas for improving the quality of education set out in the "Development Strategy for 2022-2026".

Keywords: Modern Uzbek pedagogy, unity of theory and practice, healthy thinking person, civil society, Renaissance, inclusive education, integration.

Introduction

YANGI O'ZBEKISTONNING ILM-FAN TARAQQIYOTIDA PEDAGOGIKA FANLARINING O'RNI VA RIVOJI

Esonaliyeva Gulnoza Dilmurod qizi,

O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi

(ma'naviyat asoslari) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya

Bu maqolada Yangi O'zbekiston ilm-fanida pedagogika fanlarini rivojlantirish borasidagi islohotlar, sohada ulkan yutuqlargan erishgan ilg'or davlatlarning tajribalarini joriy qilishdagi vazifalar, "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi"da ta'lim sifatini oshirish bo'yicha belgilangan ustuvor yo'nalishlar haqida xulosalar, taklif va tavsiyalar bayon etilgan.



Kalit so‘zlar: zamonaviy o‘zbek pedagogikasi, nazariya va amaliyot birligi, sog‘lom tafakkurli shaxs, fuqarolik jamiyati, Renessans, inklyuziv ta’lim, integratsiyalashuv.

Bugungi kunda har qanday davlat, jamiyat barqaror rivojlanish, taraqqiyot, yuksalish yo‘liga qadam qo‘yar ekan, eng avvalo, o‘z xalqini bilimli, dono, savodli, tashabbuskor, global kompetentli, bir so‘z bilan aytganda, barkamol, komil inson sifatida shakllantirmog‘i lozim. Bu borada albatta pedagogika fanlarining o‘rni beqiyos.

Pedagogika – tarbiya, ta’lim hamda ma’lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganuvchi fanlar majmuasi. Shaxsni tarbiyalash pedagogikadagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi. Shuningdek, pedagogika komil insonni shakllantirishga doir fan sifatida falsafa, etika, estetika, madaniyatshunoslik, psixologiya, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, demografiya, tarix, adabiyot, tibbiyot, matematika va boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liq.

Pedagogika tarixiga nazar tashlasak, bu atama dastlab Yunonistonda “bola yetaklovchi” degan ma’noni bildiruvchi grekcha “paydogogos” so‘zidan kelib chiqqan.¹ Qadimgi Yunonistonda o‘z xo‘jayinining bolalarini sayr qildirgan, ehtiyot qilgan, harbiy mahoratni o‘rgatgan tarbiyachini “pedagog” deb atashgan. Keyinchalik esa maxsus o‘qitilgan va pedagoglikni o‘ziga kasb qilgan kishilarni pedagog deb atay boshlashgan. Pedagogika haqidagi dastlabki fikrlar falsafa, diniy ilmlar tizimida, siyosatshunoslikda, huquqshunoslikda, adabiyot fanlarida rivojlanadi. XII asrning boshida esa alohida mustaqil fan sifatida ajralib chiqadi. Jumladan, bu sohaning rivojiga Aristotel, Suqrot, keyinchalik Frensis Bekon va Komenskiylar o‘z asarlari bilan ulkan hissa qo‘shishgan. Ulardan so‘ng esa Jon Lokk, Jan Jak Russo, Gerberd, Disterverg, Sharl Monteskiyolar pedagogika sohasida salmoqli asarlar yozib qoldirgan.

Zotan, hamisha ma’naviyatga, ilmga, komil shaxsni shakllantirishga intilib kelgan o‘zbek xalqi pedagogikasi juda qadim tarixga ega bo‘lib, uning ilk ildizlari Avesto, O‘rxun-Enasoy bitiklariga borib taqaladi. Jumladan, Avestodagi ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal haqidagi, kishilarga ko‘ngil ma‘rifati berish borasidagi qarashlar yozma milliy pedagogik qarashlarning dastlabki namunasi. Milliy pedagogikamizning

¹ Pedagogik ensiklopediya. I jild. / Mas’ul muharrir R.Safarova. –T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. –320 b.



taraqqiyotida islom dini va tasavvuf ilmi alohida o‘rin tutadi. Zero, buning uchun birgina “Beshikdan, to qabrgacha ilm izla” , “Ilm olish har bir erkak va ayol uchun farzdir” kabi hadislarini yodga olish kifoya. Mamlakatimizda pedagogika fanlari rivojining keyingi bosqichiga o‘tishdan oldin yurtimiz ikki bor ulkan Renessansni boshidan kechirganini va bu uyg‘onish bevosita pedagogika sohasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lganligini ta‘kidlash joiz. Ona Vatanimizda birinchi Renessans IX-XII asrlarni o‘z ichiga olib, bu davrlarda nafaqat Sharq, balki G‘arbda ham pedagogik fikrlar rivojlanishi uchun Al-Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Ahmad al-Farg‘oniy o‘zining bebaho asarlari bilan katta hissa qo‘shgan. Ikkinchi Renessansning yuzaga kelishi esa XIV-XV asrlarda Amir Temur va Temuriylar saltanati bilan bog‘liq. Bu davrda Mirzo Ulug‘bekning “Zijji jadidi Ko‘ragoniy”, Alisher Navoiyning “Xamsa”, “Muhokamat ul-lug‘atayn” , Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarlari bilan soha rivojiga turtki bo‘lgan. Afsuski, yurtimizda XVI asrdan XIX asr o‘rtalarigacha bo‘lgan davrda, ya‘ni “So‘nggi o‘rta asrlarda ayrim xonlar, xonliklardagi amaldor, ulamolarning eskicha qarashlari, diniy taassubliklari natijasida yurtimiz tabiiy va amaliy pedagogik fanlar rivojidan biroz ortda qoldi. Ammo, “Turkistonni faqat ilm-u ma‘rifatgina ijtimoiy-madaniy, siyosiy-iqtisodiy tanglikdan olib chiqadi” degan hikmatni o‘zlariga shior qilgan jadidlar Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon, Sadridin Ayniy ham pedagogika sohasiga savodli, teran, hur fikrlaydigan, barkamol avlodni tarbiyalash ishiga turli yangi usuldagi maktablar ochib, bolalarga bepul ta‘lim berish, kutubxonalar, teatrlar tashkil etish kabi yo‘llar orqali juda katta hissa qo‘shishdi. Ushbu davrlarda sohada ma‘lum yutuqlarga erishilgan bo‘lsada ammo ta‘lim, pedagogika tizimi muayyan qolip asosida davom etdi.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng o‘zbek pedagogikasi mutlaqo yangi bosqichga qadam qo‘ydi. Pedagogika sog‘lom fikr , milliy ruhiyat va an‘analarga mos tarzda yo‘lga qo‘yildi. Sohada yangi adabiyotlar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar chop etildi. 1997-yil 29-avgustda “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 2-fevraldagi 77-sonli qaroriga muvofiq Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika institutiga universitet maqomi berilib, u respublikada akademik litsey, kasb-hunar kollejlari uchun pedagog kadrlar – fan o‘qituvchilari tayyorlaydigan yetakchi tayanch oliy o‘quv yurti deb belgilandi. Zero, bugungi ona yurtimiz kuchli huquqiy demokratik davlat va yuksak fuqarolik jamiyati sifatlarini o‘zida mujassam etgan



Yangi O‘zbekistonni bunyod etarkan, bu yo‘lda ilm-fan tarmoqlari, ayniqsa, pedagogikaning o‘rni juda muhim. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev shunday deydilar: “Ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas”. Shu bilan birgalikda 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi” dasturining 4-bo‘limida ta‘lim sifatini oshirish bo‘yicha vazifalar belgilangan: ...nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va maktablarga farzandlarini yuborayotgan ota-onalarning oyiga 3 million so‘mgacha bo‘lgan to‘lovlari daromad solig‘idan ozod etilsin, umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida darsliklarni yangilash dasturini amalga oshirish uchun Davlat budjetidan 605 milliard ajratilsin, 141 mingta yangi o‘quv o‘rinlari yaratilsin va ularning soni 2026-yil yakuniga qadar 6.4 millionga yetkazilsin.²

Pedagogika sohasida salmoqli yutuqlarga erishilgan bo‘lsada ammo bir qator kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yildi. Albatta, bu kamchiliklar bugungi kunga kelib bartaraf etilmoqda hamda rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rgangan holda yangi innovatsiyalar, dastur va tizimlar joriy etilmoqda. Jumladan, maktabgacha ta‘lim tizimining yanada takomillashtirilishi, o‘rta ta‘limning faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga emas, balki u bilan birgalikda o‘quvchilarni mustaqil, erkin fikrlash, ularni tashabbuskorlikka yo‘naltirishi, qog‘ozbozlikdan voz kechilib raqamli, kompyuter texnologiyalarining keng joriy qilinishi, pedagog xodimlar maqomining qayta tiklanishi, xususiy ta‘lim tashkilotlarining erkinligi va ular sonining ortishi, pedagogik sohada ta‘lim olayotgan talabalarning oliy ta‘lim muassasalarida olayotgan bilimlarini 2 kun davomida amaliyotda ham qo‘llash imkoniyatining yaratilishi shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston ilm-fanida pedagogika fanlarining o‘rni va rivoji nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, har jihatdan barkamol, yetuk avlodni shakllantirishda pedagoglarning o‘rni beqiyos. Bugungi globallashuv va integratsiyalashuv davrida ta‘lim tizimida raqamli, ilg‘or texnologiyalar, innovatsiyalar, multimedia mahsulotlari va pedagoglarning ulardan mohirona foydalana olish qobiliyati juda ham zarur. Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi vazifalarni belgilash mumkin:

– birinchidan, bugungi globallashuv va integratsiyalashuv davrida hayotimizga innovatsion texnologiyalar va axborot kommunikatsiyalarining jadallik bilan kirib kelayotganligini inobatga olib, ularni pedagogik sohaga yanada keng jalb etish;

² “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi” –<https://lex.uz>.



– ikkinchidan, talabalarning pedagogik bilimlarni amaliyotda ham namoyish etishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish;

– uchinchidan, sog‘lom fikrli, barkamol avlodni shakllantirishda pedagogika fanlari tizimida tarbiya fanlari ruknida keksa-nuroniylar, jamiyat faollari bilan uchrashuvlarni ko‘paytirish;

– to‘rtinchidan, inklyuziv ta‘limni rivojlantish, bu boradagi ta‘lim muassasalarini ko‘paytirish, o‘quvchilarda nazariya va amaliyot uyg‘unligini mustahkamlash uchun ta‘lim muassasalarida amaliy, tabiiy fanlar doirasida laboratoriya mashg‘ulotlari, amaliyot darslarini ko‘paytirish;

– beshinchidan, zamonaviy pedagogika sohasidagi yangi islohotlar, metodlar, sohada ulkan yutuqlarga erishgan jahonning ilg‘or mamlakatlari tajribalarini ommabop risolalar, bukletlar va ilmiy-ommabop maqolalar orqali targ‘ib qilish.

Binobarin, zamonaviy o‘zbek pedagogikasining asosiy maqsadi ham har sohada ilg‘or, yetuk, axborot-kommunikatsion bilimlarga ega, sog‘lom fikrli komil shaxslarni tarbiyalashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Pedagogik ensiklopediya. I jild. / Mas‘ul muharrir R.Safarova. –T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti , 2015. –320 b.
2. “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi”
3. <https://lex.uz>.